TARJIMA NAZARIYASIDA MUQOBILSIZ LEKSIKA VA UNING IFODALANISH USULLARI

Tog'aymurodova Sevara Sirojiddin qizi
Qarshi Davlat Universiteti, tayanch doktoranti.

Annotatsiya: Mazkur maqolada muqobilsiz leksikaning o'ziga xos xususiyatlari hamda uni tarjima qilish jarayonidagi muammolar tahlil qilinadi. Muqobilsiz leksik birliklarning vujudga kelish sabablari, ularning milliy-madaniy xususiyatlari va til tizimidagi o'rni yoritib beriladi. Shuningdek, bunday birliklarni tarjima qilishda qo'llaniladigan asosiy usullar – transliteratsiya, transkripsiya, kalkalash hamda tasviriy tarjima usullarining ahamiyati misollar asosida ko'rib chiqiladi. Maqolada o'zbek tilidagi milliy-madaniy realiyalarni ifodalovchi leksik birliklar misolida ularning tarjima jarayonidagi o'ziga xos jihatlari ochib beriladi. Shu bilan birga, tarjimon uchun nafaqat tilni, balki xalqning madaniyati, urf-odatlari va turmush tarzini bilish muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: muqobilsiz leksika, tarjima, transliteratsiya, transkripsiya, kalkalash, tasviriy tarjima, milliy-madaniy leksika, tarjimashunoslik.

Аннотация:
В данной статье рассматриваются особенности безэквивалентной лексики и проблемы ее перевода. Анализируются причины возникновения безэквивалентных лексических единиц, а также их связь с национально-культурными особенностями народа. Особое внимание уделяется основным способам перевода такой лексики, включая транслитерацию, транскрипцию, калькирование и описательный перевод. В статье также приводятся примеры из узбекского языка, отражающие национальные и культурные реалии народа. Подчеркивается важность знания не только языка оригинала, но и культурных особенностей народа для успешного осуществления перевода.

Ключевые слова: безэквивалентная лексика, перевод, транслитерация, транскрипция, калькирование, описательный перевод, национально-культурная лексика, переводоведение.

Abstract:
This article examines the characteristics of non-equivalent vocabulary and the problems associated with its translation. The study analyzes the reasons for the emergence of non-equivalent lexical units and their connection with national and cultural features of a people. Special attention is given to the main methods of

translating such vocabulary, including transliteration, transcription, calque, and descriptive translation. The article also provides examples from the Uzbek language that reflect national and cultural realities. It emphasizes the importance of understanding not only the source language but also the cultural background of the people in order to achieve an accurate and effective translation.

Keywords: non-equivalent vocabulary, translation, transliteration, transcription, calque, descriptive translation, national-cultural vocabulary, translation studies.

Tarjima jarayoni nafaqat bir tildagi matnni boshqa tilga o‘girish, balki turli xalqlarning madaniyati, dunyoqarashi va milliy xususiyatlarini bir-biriga yetkazish jarayonidir. Har bir xalqning tilida uning tarixiy rivoji, turmush tarzi, urf-odatlari va mentaliteti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan leksik birliklar mavjud. Bunday birliklarning ayrimlari boshqa tillarda to‘liq muqobilga ega bo‘lmaydi. Tilshunoslikda bunday so‘z va iboralar **muqobilsiz leksika** deb ataladi. Muqobilsiz leksika muayyan xalqning milliy-madaniy hayotini, turmush tarzini va an’analarini aks ettiradi. Shu sababli bunday birliklarni tarjima qilish tarjimon oldiga murakkab vazifalarni qo‘yadi. Chunki muqobilsiz leksik birliklar ko‘pincha boshqa tilning leksik tizimida mavjud bo‘lmaydi yoki ular ifodalaydigan tushuncha boshqa madaniyat vakillari uchun notanish bo‘lishi mumkin. Natijada tarjima jarayonida bunday birliklarni aniq va to‘g‘ri ifodalash uchun turli tarjima usullaridan foydalanishga to‘g‘ri keladi.

Tarjima nazariyasida muqobilsiz leksikani tarjima qilishda transliteratsiya, transkripsiya, kalkalash hamda tasviriy tarjima kabi usullar keng qo‘llaniladi. Ushbu usullar orqali asliyat tilidagi leksik birliklarning ma’nosi imkon qadar to‘liq va aniq yetkazishga harakat qilinadi. Bunda tarjimon nafaqat til bilimiga, balki xalqlarning madaniyati, urf-odatlari va ijtimoiy hayoti haqidagi bilimlarga ham ega bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur ishda muqobilsiz leksikaning vujudga kelish sabablari, ularning milliy-madaniy xususiyatlari hamda tarjima jarayonida qo‘llaniladigan asosiy usullar tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘zbek xalqining turmush tarzi va madaniyatiga xos bo‘lgan ayrim leksik birliklar misolida ularning tarjima jarayonidagi o‘ziga xos jihatlari ko‘rib chiqiladi.

Bundan ko‘rinadiki muqobilsiz leksikaning vujudga kelish sababi L.K. Latishevning ta’kidlashicha, asliyat tili sohibiga yaxshi tanish bo‘lgan hodisani ifodalovchi, mazkur tilning leksik tarkibidan barqaror o‘rin olgan leksik birlik bo‘lib, u tarjima tili sohibi uchun mutlaqo notanish yoki juda kam tanish bo‘lgani uchun va

tarjima tilining leksik tarkibida aks etmaganligida deb ko‘rsatadi[13]. Shu bilan birga, turli madaniyat va etnik hamjamiyatlar tomonidan olamni o‘zgacha ko‘rish tarzidir. Bu xususan, tarjima tilida har doim ham asliyat tilida qayd etilgan leksik birliklar o‘zining tushuncha va ma’nosida qayd etilmasligida namoyon bo‘ladi. Ularda muayyan madaniyatga xos bo‘lgan milliy-madaniy unsurlar mavjud bo‘lganligi sababli tarjima qilishda transliteratsiya, transkripsiya, kalkalash va tasviriy usuldan foydalaniladi.

*Transliteratsiya usuli orqali t*arjima tili harflari yordamida muqobilsiz leksikaning tarjima muqobili yaratiladi va tarjima tilining fonetik qoidalariga ko‘ra talaffuz qilinadi. Transliteratsiya usuli tarjima tilida so‘zning muqobili umuman bo‘lmaganda qo‘llaniladi. Bu usul orqali tarjima qilingan birliklar mohiyati jihatidan o‘zga tildan so‘z o‘zlashtirishga o‘xshab ketadi. Afzalligi shundaki, muqobilsiz leksikaning ishonchliligidir. Tarjimon transliteratsiya jarayonida yangi so‘z yoki kam tushunarli bo‘lgan so‘zning izohidan va uning noto‘g‘ri talqinidan qochadi. Lekin bu bilan resipient so‘zning ma’nosini to‘liq tushunmasligi mumkin. So‘zning ma’nosi faqat kontekst orqali ochiladi. Masalan, *producer* so‘zi o‘zbek tiliga *prodyuser, computer - kompyuter, interview - intervyu, printer - printer, вагон - vagon, комбайн - kombayn* tarzida transliteratsiya qilingan.

*Transkripsiya usuli*da muqobilsiz leksik birlikning talaffuzi tarjima tilidagi harflar bilan beriladi. Transkripsiya usulida kishi va joy nomlarini tarjima qilish lozim bo‘lgandagina foydalaniladi: Haynrix Hayne - Genrix Geyne, Scarlett- Skarlet, Thomas - Tomas, Thokur - Tagor, O‘zbekiston - Uzbekistan, Samarqand - Samarkand, agency - agentlik, antique - antik.

Kalkalash usuli (fransuzcha: nusxa olish, taqlid qilish). Bu usul tarjima jarayonida ko‘p qo‘llaniladi. Unda muqobilsiz leksik birlikning tarkibiy qismlari tarjima tiliga aslidagidek, so‘zma-so‘z o‘giriladi. Masalan, ingliz tildagi *green revolution* birikmasi o‘zbek tiliga *yashil revolutsiya*, *copyright - mualliflik huquqi, foreign school - xorijiy maktab, cold arms - sovuq qurol* birikmasi sifatida so‘zma-so‘z tarjima qilingan. Frazeologik birliklarni ham tarjima qilishda leksik jihatdan farq qiladigan yoki muqobil variantlar bilan tarjima qilishdan ko‘ra, kalkalash usuliga murojaat qilish samarali bo‘ladi.

Tasviriy usul (Descriptive). Bu usulda so‘z yoki frazeologik birliklarning na ekvivalenti, na muqobil varianti, na kalka yordamida tarjima qilishning imkoni bo‘lmaydi. Shunday holda tasviriy usul yordamga keladi. Bir so‘zni tarjima tilidagi so‘z yoki so‘z birikmasi, frazeologik birliklar va butun bir gap orqali tarjima qilish

[13] Латышев Л.К. Технология перевода: Учебное пособие по подготовке переводчиков (с немецкого языка). – М.: НВИ Тезаурус, 2000. – 280 с.

mumkin. - *Yozuvchi deyishayotgandi, - javob berdi ikkinchisi. - Yozuvchi nima qiladi bu yerda, ularni joyi Mtatsmindada!* (N. Komilov tarjimasi "Abadiyat qonuni", 18) Tarjima jarayonida tarjimon nafaqat asliyat tilini, shu bilan birga, boshqa madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari, an'analari, urf - odatlari, mentalitetini yaxshi bilishi kerak. Bu gapda Mtatsminda (lug'aviy ma'nosi: "Muqaddas tog'") - Tbilisidagi taniqli jamoat arboblari dafn etiladigan tepalik nazarda tutilgan. Agarda tarjimon gruzin millatining yashash tarzini, bu nom tepalik nomi ekanligini va bu joyga aynan taniqli jamoat arboblari dafn etilishini bilmasa, buni boshqa millat vakili bo'lgan resipient tushunmasligi mumkin.

Xalqimizning turmush tarziga nazarsolar ekanmiz, boshqalarga hech o'xshamaydigan, ming yillar davomida shakllangan, nafaqat o'zaro muomala, balki hayotimizning uzviy bir qismi sifatida namoyon bo'ladigan bir qator o'ziga xos xususiyatlarimiz anchagina. Masalan: *mehr - oqibat, mehr - shafqat, qadr - qimmat kabi tushunchalar o'zbek xalqiga xosdir; guzar, mahalla, qumg'on, choyxona, dasturxon,* hashar kabi so'z va tushunchalar xalqimizning milliy o'zligini, madaniy hayoti va o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi.

Guzar – o'tish joyi; ko'cha, mahalla. Qishloq yoki mahallalarning chorrahalarida joylashgan, choyxonalari, qassoblik, baqqollik kabi do'konlari bo'lgan obod, gavjum joy. Buxoro xonligida: mahalla. (O'TIL, 516*)* . *Kuz havosining suyaklarni zirqiratuvchi sovug'iga qaramay, guzarda choyxo'r ko'p edi.*

*Mahalla (*joy, o'rin, makon) – ma'lum bir hududni o'z ichiga olgan va aholisi bir jamoaga birlashgan ijtimoiy-hududiy bo'lak: *Bir bolaga yetti mahalla ota-ona.*

Qumg'on – choy qaynatish uchun foydalaniladigan, ko'zacha shaklidagi dastali va qopqoqli idish: *O'choqning og'zida o'tga ko'milgan qora qumg'on vaqirlab qaynaydi.*

Hashar – yig'in, to'da; yig'ilish, anjuman. Biror ishni bajarishda ko'pchilikning ixtiyoriy, beg'araz ishtiroki, ixtiyoriy ko'magi (O'TIL, 517). Masalan, *Hashar – elga yarashar. Bunday so'zlar judayam ko'p biz ulardan eng faollarini misol tariqasida aytib o'tdik.*

Xulosa qilib shuni aytish joizki bu kabi leksik birliklar xalqimizning asriy qarashlari, ma'naviy hayotining asosi sifatida yuzaga kelgan, tasavvurimizda muhrlangan qadriyatlar, an'analar ifodasidir. Shunday ekan, bunday birliklar faqat bizning millatimizgagina xos hodisalar bo'lib qolmay, boshqa xalq vakillarida ham bunday jarayonlar kuzatiladi. Muqobilsiz leksikani tarjima qilishda nafaqat asliyat tilini bilishi, balki xalqlar madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari, urf-odati, maishiy

hayoti, nutqiy etiket qoidalarini bilishini ham talab etadi. Shundagina tarjima muvaffaqqiyatli amalga oshishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Komilov N. *Abadiyat qonuni.* – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2000.
2. Latishev L.K**.** *Teoriya perevoda i perevodcheskaya praktika.* – Moskva: Mejdunarodnye otnosheniya, 2005.
3. Rahimov S. *Tarjima nazariyasi asoslari.* – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
4. Salomov G'. *Tarjima nazariyasiga kirish.* – Toshkent: O'qituvchi, 1983.
5. **O'zbek tilining izohli lug'ati (O'TIL).* 5 jildlik. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2006–2008.
6. Norqobilov Sanjar Rahmat o'g'li, & Shomuratova Fotima Abdivaitovna. (2024). STUDY OF LEXICAL-GRAMMATICAL TRANSFORMATIONS IN ARTISTIC TRANSLATION BASED ON JOHN GREEN'S NOVEL "THE GIRL IN OUR STARS". *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, *4*(01), 48–55. https://doi.org/10.55640/eijmrms-04-01-10